



THE PROBLEM OF COLLECTING AND STUDYING UNITS EXPRESSING POSITIVE CONTENT OF DESIRE IN UZBEKISTAN DIAGNOSES OF KHOREZM REGION

Jumaboyeva Aziza Bakhtiyor qizi

PhD student at Urgench State University

Bakhtiyorovnaa1@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577030>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Positive wishes, speech etiquette, applause, Khorezm dialects, units expressing wishes, pragmatics, semantics, national thinking.

ABSTRACT

This article discusses the linguistic essence of units expressing the content of positive wishes, their lexical-semantic and pragmatic properties, how they are studied in linguistics, and the practical and theoretical significance of these studies. The article analyzes the useful aspects of studying expressions of wishes in linguo-cultural, pragmatic, communicative and dialectological directions on a scientific basis.

XORAZM VILOYATIDAGI O'ZBEK SHEVALARIDA IJOBIY ISTAK MAZMUNINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNI TOPLASH VA O'RGANISH MASALASI

Jumaboyeva Aziza Baxtiyor qizi

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti

Baxtiyorovnaa1@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15577030>

ARTICLE INFO

Received: 24th May 2025

Accepted: 30th May 2025

Online: 31st May 2025

KEYWORDS

Ijoby istak, nutqiy etiket, olqishlar, Xorazm shevalari, tilak bildiruvchi birliklar, pragmatika, semantika, milliy tafakkur.

ABSTRACT

Mazkur maqolada ijoby istak mazmunini ifodalovchi birliklarning lingvistik mohiyati, ularning leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari, tilshunoslikda qanday o'rganilgani hamda bu tadqiqotlarning amaliy va nazariy ahamiyati yoritilgan. Maqolada istak ifodalarini o'rganishning lingvokulturologik, pragmatik, kommunikativ va dialektologik yo'nalishlardagi foydali jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kirish

Til – inson tafakkuri, ruhiy holati va ijtimoiy munosabatlarining eng muhim vositasidir. O'zbek xalqining muomala madaniyatida til vositalari orqali ifodalanadigan ijoby tilaklar alohida o'rin tutadi. Muloqot jarayonida ishtirok etayotgan shaxslar ko'pincha bir-birlariga ezgu niyat, samimiy istak bildiruvchi iboralardan foydalanadilar. Bunday birliklar asosan duo qilish, bayram yoki quvonchli voqealarni muborakbod etish, salomlashish, xayrlashish hamda ta'ziya bildirish kabi holatlarda qo'llaniladi. Ular semantik va grammatik jihatdan tilda barqarorlashib, ko'plab nutqiy holatlarda doimiy qo'llanadigan barqaror birikmalarga



aylangan. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu iboralarining barchasi o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy qadriyatlari, nutq etiketi va milliy tafakkurida chuqur ildiz otgan bo'lib, ular orqali doim ijobiy istak mazmuni ifodalanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

G'arb tilshunosligida istak, niyat, tilak bildiruvchi birliklar XX asr boshidan boshlab izchil o'rganila boshlagan. Ingliz tilshunosligida bu boradagi ilk yirik tadqiqotlardan biri Jespersenning "The Philosophy of Grammar" (1924) asarida uchraydi. Unda fe'l shakllari orqali ifodalanuvchi harakatning haqiqatga munosabati, jumladan, istak, niyat kabi mazmunlar tahlil qilingan. [1:295] Keyinchalik Palmer (1986) bunday birliklarni "ehtiyoj, ruhsat, istak, talab" kabi holatlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi va ularni "modallik" tushunchasi doirasida izohlaydi. [2:243]

Rus tilshunosligida esa istak bildiruvchi shakllar gapning modal xususiyatlari doirasida o'rganilgan. Masalan, Bondarko (1990) istakni "subyektiv modal birlik" sifatida ko'rsatadi, [3:256] Vinogradov (1950) esa ularni ifoda vositalari sifatida baholaydi. [4:320]

Turkiy tillar doirasida esa bunday birliklar qadimiy manbalardan boshlab mavjud bo'lib, bu hol qadimgi turkiy yodgorliklarda ham kuzatiladi. Masalan, "Bilga xoqon bitigi", "Kultegin bitigi" kabi yodgorliklarda "Tengride qut bolzun", "El tutmaq tilemiz" kabi iboralar istak mazmunini ifodalagan. Bu istaklar ko'proq jamoaviy, ijtimoiy yo'naltirilgan va ijobiy tusdagi tilaklar sifatida namoyon bo'lgan. [5:312]

O'zbek tilshunosligida esa ijobiy istak birliklarining lisoniy tadqiqini M.Bazarova o'z nomzodlik ishida boshlab berdi. Jumladan mazkur ishda bunday nutqiy birliklarning duolar va nutqiy etiketlar asosida tahlil qilinganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, S.Mo'minov va Sh.Iskandarovalarning tadqiqotlarida ijobiy istak mazmuniga ega nutqiy etiketlarning ijtimoiy va lisoniy xususiyatlari haqida mulohazalar keltirilgan.

Natijalar va muhokama

O'zbek tilida keng qo'llanadigan ijobiy istak ifodalari tilshunoslikda olqishlar atamasi bilan yuritiladi va folklorshunoslik doirasida alohida janr sifatida maxsus o'rganilgan. "O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi" nomli asarda olqish va qarg'ishlar alohida janr sifatida qaralib, ular haqida shunday deyilgan: "So'zda g'ayritabiiy sehr-jodu qudrati mavjudligini ko'rish va qudrat oldida o'zini o'jiz sezish asosida ikki bir-biriga mazmunan zid bo'lgan janr - olqish va qarg'ish yuzaga kelgan" [6:109]. Shu manbada olqish so'zi turkiy tillarda maqtash, sharaflash, yaxshi istaklar tilash kabi ma'nolarni anglatuvchi qadimgi turkiy ol fe'li o'zagiga -qi buyruq mayli affiksi hamda -(i)sh harakat nomi qo'shimchalarining qo'shilishidan yasalgan deb ko'rsatiladi [9:109]. Ushbu sohada tadqiqotlarda tahlil obyekti sifatida o'zbek xalqining og'zaki nutqida uchraydigan duolar, turli marosim va bayramlarda aytiladigan tilaklar, kundalik muloqotda ishlatiladigan va odat tusiga kirib qolgan iboralar, ya'ni nutqiy etiketlar, shuningdek, rasmiy, badiiy va ommaviy axborot vositalarida qo'llanadigan, semantik hamda sintaktik jihatdan turg'unlashgan istak ifodalovchi vositalar asos qilib olingan. Bu kabi birliklar o'ziga xos semantik boylikka ega bo'lib, ularning shakllanishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatgan: 1. Sotsiolingvistik omillar – Xorazm shevalari jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va milliy mentalitet bilan chambarchas bog'liq. Xalq orasida do'stona muloqot, mehmondo'stlik va mehr-muruvvat muhim qadriyatlar hisoblanganligi sababli, til ham shunga mos ravishda ijobiy istak bildiruvchi shakllarni rivojlantirgan. Masalan, *Ishing o'nginnan galgay, Barakat topgaysan,*



Qadaming qutlug' bo'lsin kabi so'z birikmalari insonlar o'rtasidagi iliq munosabatni mustahkamlovchi birliklardir. [10:68-71]

2. Diniy va madaniy omillar – Islom dini va mahalliy e'tiqodlar tilga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ko'plab istak bildiruvchi birliklar Qur'on va hadislardan kelib chiqqan iboralar asosida shakllangan. Masalan, *Sani Ollo qo'llasin, Baxtingni Ollo ochsin, Niyating xolis bo'lsin*. kabi birliklar diniy-ma'naviy ta'sir natijasidir. [10:68-71] Xususan, tilshunos olim A.Madvaliyev ijobiy istak bildiruvchi birliklarni nutq etiketining muhim tarkibiy qismi deb baholab, ularning shakllanishida milliy urf-odatlar, diniy qarashlar va tarixiy til qatlamlarining ta'siri borligini ta'kidlaydi. Ko'rinadiki, ijobiy istak birliklarining kelib chiqishini tahlil qilish orqali nafaqat dialektologik bilimlar kengayadi, balki xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, ruhiy olami va milliy tafakkuri haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Bu esa bunday birliklarni o'rganishni tilshunoslik va folklorshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb masalaga aylantiradi.

Mazkur birliklarning shakllanishiga sabab bo'lgan omillarni aniqlash ularni chuqur tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ularning lingvistik jihatdan o'rganilishi tilning muloqotdagi funksional xususiyatlarini aniqlash, nutq etiketi va pragmatik tamoyillarni tahlil qilish, shuningdek, milliy tafakkur xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ijobiy istak ifodalarini o'rganish bir qancha yo'nalishlarda muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi:

1. Tilshunoslik (leksikologiya va frazeologiya) nuqtayi nazaridan

Ijobiy istak bildiruvchi birliklar ko'pincha barqaror iboralar tarzida namoyon bo'ladi. Ularning semantik tuzilishi va uslubiy o'rni tilshunoslikda, ayniqsa frazeologiyada tahlil qilinadi. Masalan, *Qadaming qutlug' bo'lsin, Nonday butun bo'l, Ko'zingiz oydin* kabi ifodalar xalq ruhiyati bilan chambarchas bog'langan. Bu borada A. Madvaliyev shunday deydi: "Frazeologik birliklar xalq tafakkurining natijasi sifatida o'zining mustahkam strukturasini va boy semantik qatlami bilan ajralib turadi". [11:120]

2. Pragmatik va kommunikativ lingvistika sohalarida

Ijobiy istak birliklari muloqot jarayonida ijtimoiy va psixologik rollarni bajaradi. Ular orqali muomala ishtirokchilari o'rtasida iliq munosabat, samimiyat va ijobiy energiya uzatiladi. Tilshunos A. Mo'minov ta'kidlaganidek, "Har bir til birligi o'z funksiyasini faqat kommunikativ maydonda – real nutqiy vaziyatda namoyon etadi". [12:145] Shu nuqtayi nazardan istak birliklarining o'rganilishi pragmatik kompetensiyani kuchaytirishga xizmat qiladi.

3. Madaniyatshunoslik va folklorshunoslik kontekstida

Bu birliklar xalq og'zaki ijodining – duolar, olqishlar, tilaklar va marosimiy nutq unsurlarining tarkibiy qismini tashkil etadi. A. Jo'rayev olqishlarni "xalqning niyat, orzu va qadriyatlarining badiiy ifodasi" deb ataydi. [13:200] Ular milliy ongini, avlodlararo uzviylikni va an'anaviy muloqot normalarini saqlashga xizmat qiladi.

4. Psixolingvistika va sotsiolingvistika nuqtayi nazaridan

Istak bildiruvchi birliklar nutq egasining ruhiy holati, ijtimoiy mavqeyi, tilga bo'lgan emotsional munosabati kabi omillar bilan bog'liq. Ular orqali inson o'z niyatini nafaqat semantik, balki hissiy jihatdan ham ifodalaydi. Shu bilan birga, ijobiy istaklar mintaqaviy shevalarda turlicha shakllangani uchun sotsiolingvistik tadqiqotlarda ham ahamiyatlidir.

5. Til o'rgatish va tarjima sohalarida



Ijobiy istak ifodalarini tarjima qilishda madaniy va hissiy konnotatsiyalarni to'g'ri yetkazish katta e'tibor talab qiladi. Chunki ko'plab istaklar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, ma'no noaniqligi yoki madaniy nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Bu borada til o'rgatuvchi darsliklar va tarjima nazariyasida bunday birliklarning o'rni alohida o'rganilishi lozim.

Xulosa

Ijobiy istak mazmunini ifodalovchi birliklar o'zbek tilining muloqotda qo'llanuvchi muhim nutqiy vositalaridan biri bo'lib, ular orqali insonlar o'zaro iliq munosabat o'rnatadi, ezgu niyat va samimiy tilaklarini ifodalaydi. Bu birliklar tilshunoslikning bir qancha sohalari — frazeologiya, pragmatika, sotsiolingvistika, madaniyatshunoslik hamda tarjima nazariyasi uchun alohida qiziqish uyg'otuvchi obyekt sanaladi. Ularning lingvistik va funksional xususiyatlarini o'rganish orqali nafaqat tilning ichki tuzilmasi, balki xalqning tarixiy, madaniy va psixologik tafakkuri haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin. Ayniqsa, Xorazm shevalarida uchraydigan ijobiy istak birliklarining sotsiolingvistik va lingvokulturologik tadqiqi bu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqadi.

References:

1. Jespersen O. The Philosophy of Grammar. — London: George Allen & Unwin, 1924.
2. Palmer F.R. Mood and Modality. — Cambridge: Cambridge University Press, 1986.
3. Бондарко А.В. Функциональная грамматика. — М.: Наука, 1997.
4. Виноградов В.В. Русский язык. Грамматическое учение о слове. — М.: Наука, 1977.
5. Захаров И.К. Грамматика древнетюркского языка. — Алматы: Наука, 1995.
6. Bazarova M.M. O'zbek tilidagi ijobiy istak mazmuni ifodalovchi nutqiy birliklarning lisoniy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi... diss. avtoref. — T, 2007.
7. Mo'minov A. Til va tafakkur uyg'unligi. — T.: O'qituvchi, 2010.
8. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol.fanlari nomzodi... diss. — Samarqand, 1993.
9. Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. — Т.: Ўқитувчи, 1990.
10. Xorazm folklori, 11-tom. Urganch — 2008.
11. Madvaliyev A. O'zbek tilining frazeologiyasi. — Toshkent: Fan, 2007.
12. Mo'minov A. Til va nutqning kommunikativ xususiyatlari. — Toshkent: O'qituvchi, 2012.
13. Jo'rayev A. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. — T.: O'qituvchi, 2010.